



## XITOIY XALQ RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI, ERKIN IQTISODIY ZONALARNING O'RNI VA ULUSHI

**Nosirbekov Kozimbek Sunnatbek o'g'li**

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
"Siyosatshunoslik" yo'nalishi talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7544250>

### ARTICLE INFO

Received: 06<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 15<sup>th</sup> January 2023

Online: 17<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*Iqtisodiy faollik, ijtimoiy-maishiy ehtiyoj, tovar aylanmasi, barqaror iqtisodiy o'sish, mahalliy hududlar (provensiyalar), erkin iqtisodiy zonalar.*

### ABSTRACT

*Hozirgi kunga kelib dunyo iqtisodiyoti juda jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Iqtisodiy faollikning ortishi, ishlab chiqarish hajmining yildan-yilga o'sib borishi, shu bilan bir qatorda dunyo aholisining ko'payishi ham davlatlar kesimida ishlab chiqarishga, ijtimoiy-maishiy ehtiyoj va talablarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Dunyo iqtisodiyotining yetakchi davlatidan bir bo'lgan Xitoy iqtisodiyoti kundan-kunga yangidan-yangi cho'qqilarni zabt etib bormoqda. Tovar aylanmasi ichki va tashqi yuzaga kelayotgan talabni to'laqonli ravishda qondirish hamda eksport salohiyatini ham kuchaytirishga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Bu iqtisodiy barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida mahalliy hududlar (provensiyalar) kesimida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati ko'zda tutiladi. Mustaqil ishlab chiqarish va yetarlicha xom-ashyo bilan ta'minlash mexazmlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.*

Xitoy Xalq Respublikasi hozirgi kunga kelib dunyodagi eng iqtisodiy rivojlangan gegemon davlatlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish mamlakat hududidagi barcha iqtisodiy diasparalarni qamrab olishi natijasida ichki bozor muhitida sezilarli darajada o'zgarishlar sodir bo'ldi va bu o'z navbatida eksport salohiyatining o'sishiga ham olib kelishi bejiz emas edi. Ishlab chiqarish va eksport qilish ko'rsatkichlarining umumiy holda birligi aylanma savdoga nisbatan mamlakat miqyosida iqtisodiy rentabillik mavjudligiga ishora qiladi. Xitoy iqtisodiyotining jadal rivojlanishiga sabab bo'lgan bir qancha omillarni keltirish mumkin:

**Qashshoqlikka barham berish va resurslarni adolatli taqsimlash** – Xitoy boshqa mamlakatlarga qaraganda mamlakat aholisining juda katta qismini qashshoqlikdan olib chiqqan dunyodagi yagona davlatdir. Iqtisodiyotning eng asosiy rivojlanish prinsipi sifatida aholi turmush tarzining yaxshilanishi va qashshoqlikning butkul tugatilishi muhim ro'l o'ynaydi. Qashshoq aholi qatlamining resurs bilan ta'minlanishi va bozorda o'zaro tenglik uchun kurash olib borilishi natijasida 800 milliondan ortiq odam qashshoqlikdan qutqarildi. Mamlakatning aholi jon boshiga yalpi ichki mahsuloti Zambiyalikiga o'xshash edi. Bu Osiyodagi o'rtacha ko'rsatkichdan 2 baravar va hatto Afrikadagi o'rtacha ko'rsatkichdan 3 baravar past edi. Biroq, resurslarning teng taqsimlanishi natijasida, Xitoyda qashshoqlikning



deyarli yo'q qilinishi misli ko'rilmagan yutuq bo'ldi. Xitoyning resurslarni taqsimlash va qashshoqlikka barham berish bobida boshqa davlatlardan ajralib turishi uning iqtisodiyoti o'sishda davom etishini anglatadi.

**Doimiy o'sish** – Xitoy iqtisodiy hayotining asosiy omilidir. Xitoyda qashshoqlik darajasini pasaytirish bevosita iqtisodiy o'sish va aholi sonining astronomik sur'ati bo'ldi. Rasmiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Xitoy iqtisodiyoti bir necha ko'tarilish va pasayishlar bilan har yili o'rtacha 7% ni tashkil etuvchi ta'sirchan darajada o'smoqda. G'arb davlatlari bunday hajmlarni faqat orzu qilishlari mumkin.

**Jahonda ishlab chiqarish suratining yuqoriligi** – hozirgi davrda Xitoy butun dunyo tovar ishlab chiqarish va eksport qilish bozorining yetakchilaridan biridir. Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlardan tortib, AQSH kabi qudratli davlatlarga, Sharqdan kelgan tovarlar va resurslarga tayanadi. Xitoy arzon tovarlarni eksport qilishga ixtisoslashgan. Yana bir asosiy yutuq shundaki, onlayn chakana savdo shunchalik o'sdiki, Xitoyda savdogarlar bilan ishlaydigan pul o'tkazmalari narxini pasaytirish yoki valyuta kurslarini yaxshilash uchun maxsus tranzaksiya bitimlarini taklif qiluvchi kompaniyalar paydo bo'ldi.

**Ishonchli xususiy sektor** - kuchli xususiy sektor har qanday iqtisodiyot uchun zarurdir. Xitoyda xususiy firmalar mamlakat yalpi ichki mahsulotining uchdan ikki qismidan ko'prog'ini ishlab chiqaradi, bu esa o'sishning asosiy omiliga aylangan. Xitoy eksportining 90% dan ortig'i xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi. Xususiy sektor mamlakatdagi eng katta bandlik manbai (36%) bo'lib, u iqtisodiyotga 80% dan ortiq daromad keltiradi.

**Iste'molchi o'rta sinfining rivojlanishi** – iqtisodiy bozorda xizmatlar darajasining o'sishi ham mamlakat iqtisodiy faolligiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Xitoy hozirda tovarlarning ikkinchi yirik importchisi va eksportchisi bo'lishidan tashqari, Xitoy ham iste'molchi o'rta sinfining rivojlanishida juda katta ehtiyojlarning o'sishini boshdan kechirmoqda. Hozirgi kunga kelib Xitoyda umummilliy xizmat ko'rsatish darajasi 52,2% ni tashkil etmoqda. Iqtisodiyotning otasi Adam Smit ta'kidlaganidek: "Iste'mol butun ishlab chiqarishning ma'nosi va maqsadidir; ishlab chiqaruvchining manfaati iste'molchining manfaatini qo'llab-quvvatlashga zarur darajada hisobga olinishi kerak". Mamlakat doirasida xizmat ko'rsatish sohasining jadal ravishda rivojlanishi ichki bozor muhitini reproduktiv shaklda taraqqiy etishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Iqtisodiy rivojlanish uchun sabab bo'lgan omillar hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan holda iqtisodiyotda dinamik o'sish uchun xizmat qilib kelmoqda.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida iqtisodiy zonalar faoliyati o'ta muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy zonalarining faolligi ichki va tashqi iqtisodiyotning real ko'rsatkichlarini ham ifodalaydi. Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalar yaratish o'z ichiga kapital oqimi; ishsizlikning qisqarishi, eksportning o'sishi; iqtisodiy o'sishni va iste'molchilar daromadlarining o'sishini rag'batlantirish; hududlarni klasterli rivojlantirish; ishlab chiqarish va boshqaruvning zamonaviy texnologiyalarini jalb qilish va rivojlantirish; eng yangi xorijiy va mahalliy texnologiyalardan foydalanish; ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini joriy etishni jadallashtirish; ilmiy-texnikaviy kadrlarni, shu jumladan chet elliklarni ustuvor sohalarda jamlash; ilmiy-texnika markazlari va venchur kompaniyalarning tajribasi va tadqiqot yutuqlarini jalb qilish maqsadlarini qamrab oladi. Zamonaviy Xitoy hududi 7 ta erkin iqtisodiy zonaga bo'lingan va ular o'z navbatida viloyatlardan iborat. Shimoliy, sharqiy, shimoli-sharqiy, markaziy, g'arbiy,



janubi-g'arbiy va shimoli-g'arbiy provensiyalarda joylashgan erkin iqtisodiy zonalar. Erkin iqtisodiy zonalar kesimida ishlab chiqariladigan tovarlar eksportining asosiy yo'nalishlarini AQSH, Yaponiya, Vetnam, Janubiy Koreya, Germaniya ulushlariga to'g'ri kelmoqda.

## **SHIMOLIY IQTISODIY ZONA.**

Pekin yirik elektron vositalar, kompyuter va farmasevtika sanoati joylashgan eng yirik shaharlardan biridir. Pekindan yuklarni yetkazib berish sxemalari avtomobil va dengiz transportidir. Tyantszin nafaqat Xitoy Xalq Respublikasining eng yirik porti, balki bu yerda mamlakatdagi eng yirik konteyner terminallari joylashgan. Bundan tashqari, ushbu shaharda iqtisodiyotning quyidagi tarmoqlari: avtomobilsozlik, po'lat prokat korxonalarini, mikroelektronika, aloqa va mashinasozlik uchun uskunalar ishlab chiqarish korxonalarini, dengiz kimyosi va neft-kimyosanoati korxonalarini joylashgan. Shimoliy iqtisodiy zonada to'qimachilik va yengil sanoat, farmasevtika va elektronika, ovoz yozish apparatlari, televizion apparatlar, ularning qismlari va aksessuarlari, yadro reaktorlari ishlab chiqarish yaxshi rivojlanganligi bo'yicha boshqa mahalliy hududlardan yetakchilik qilib turadi.

## **MARKAZIY IQTISODIY ZONA.**

Markaziy iqtisodiy zonada asosan kimyo va oziq-ovqat sanoati chuqur ildizlarga ega. Qurilish sanoati, metallurgiya va mashinasozlik yaxshi rivojlangan. Xunan provinsiyasida metallurgiya va mashinasozlik, elektronika, energetika sanoati va ko'plab oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini ham o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. Kompyuterlar, magnit va optik o'qiydigan uskunalar, ma'lumotlarni kodlangan shaklda saqlash hamda o'tkazish uchun mashinalar aynan markaziy iqtisodiy zonada ishlab chiqariladi va butun mamlakat hududi bo'ylab tarqatiladi hamda eksportga yo'naltiriladi.

## **JANUBI-G'ARBIY IQTISODIY ZONA.**

Guychjou provinsiyasi tamaki, spirtli ichimliklar va elektron sanoati bilan mashhur. Bundan tashqari, Xitoy Xalq Respublikasidagi eng yirik alyuminiy qayta ishlash korxonalarini to'plangan hudud aynan shu iqtisodiy zonaga to'g'ri keladi. Butun mamlakat bo'ylab optik mahsulot, fotografik, kinematografik uskunalar, tibbiy va jarrohlik asboblari hamda zamonaviy shakldagi aparaturalar; ularning qismlari va aksessuarlari ishlab chiqarilmoqda.

Maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi butun Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Ochiqlik siyosati natijasida Xitoy milliy iqtisodiyotning asosini shakllantirish uchun zarur bo'lgan juda katta miqdordagi xorijiy sarmoyani jalb qilishga muvaffaq bo'ldi. O'tgan davr mobaynida Xitoy iqtisodiyotining o'sishi, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatida yangi eraning boshlanishi, resurs-tovar aylanmasining jahon bozoridagi texnologik taraqqiyot ulushi 39,85 % ni tashkil etadi va bu esa o'z navbatida butun dunyo iqtisodiy tizimining yil sayin barqaror ravishda shakllanib borishini ta'minlab bermoqda. Kelajak statistikalari asoslanadigan bo'lsak, 2030 yilga kelib bu ko'rsatkich 50%, 2050 yilda esa 60% dan ortiq bo'lishi kutilmoqda. 2030 yilga kelib aholining o'sish sur'ati nolga, keyin esa manfiyga qadar pasayishi tahmin qilinmoqda. Sanoatlashtirishning texnologik jarayoni tugagach, yaqin kelajakda mamlakat ishlab chiqarish tuzilmasida tub o'zgarishlar bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni iste'molchi talabining ko'p bosqichli tizimi ko'p tarmoqli ishlab chiqarish tuzilmasini shakllantirishi kerak. Turli xil ish o'rinlari orasidagi daromad farqi o'zaro mutanosib tarzda o'sishi, individual iste'mol doirasini yanada kengaytirish mamlakat iqtisodiy salohiyatining ajralmas qismi bo'lishi zarur. Kompleks texnologik jarayon



ishlab chiqarish strukturasi jadal rivojlanishiga ta'sir qilishi, ishlab chiqarishning an'anaviy shakllarini tubdan takomillashtirishi natijasida mamlakat doirasida ichki bozor muhitining sanoatlashishi **"tovar-bozor-pul-iqtisod"** ajralmas siklining taraqqiy etib yanada yuksalishiga sabab bo'ladi.

## References:

1. "Common Sense Economics: What Everyone Should Know About Wealth and Prosperity" by James D. Gwartney, Richard L. Stroup, Dwight R. Lee, Tawni H. Ferrarini and Joseph P. Calhoun.-USA:2020.
2. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. – М: Юнити, 2005 – 14-15с.
3. CHINA'S 40 YEARS OF REFORM AND DEVELOPMENT 1978–2018 Ross Garnaut, Ligang Song and Cai Fang:-Australian National university press.:2022
4. Red Capitalism: The Fragile Financial Foundation of China's Extraordinary Rise by Carl Walter, Fraser Howie
5. <https://countryeconomy.com/gdp/china> - Chinese economy rates